


Innovatsion ishlanmalar

1.		<p>Universal kultivator (mualliflar Usmanova G., Igamberdiev A.)</p> <p>Universal kultivator ekin qator oralariga suv tejoychi texnologiya asosida ishlov bera oladi. Paxta kultivatorining o'rnini bosa oladi. Egatlari tekislanib ketgan dala paxta maydonlarini mashina terimiga tayyorlashda egatlarni talab etilgan chuqurlikda shakllantirib beradi.</p>
2.		<p>Dizel va bioetanol miqdorlashgan aralashmasini qizdirib, aralashma hosil qilish qurilmasi, harorat stimulyatori (muallif Xakimov B.B.)</p> <p>Harorat stimulyatori dizel yonilg'isi va bioetanol me'yori aralashmasini qizdirib aralashтира oladi. Qurilma 0,9-1,4 klassdagi traktorlariga (T-28, TTZ-80-10, MTZ-80X) o'rnatishga moslashtirilib, qurilmaning tajribaviy nusxasi tayyorlangan.</p>


3.



Iqlim va shahar infra tuzilmasining o'zgarishini hisobga olgan holda Toshkent shahrida atmosfera havosi sifatini monitoring tizimi dasturi (muallif Abdullaev Z.S.)

Ushbu dastur *AQM-09* priborida olinadigan real time detallar yordamida ekologiyaga chiqarilgan har xil gaz yoki havoga tarqaydigan kimyoviy moddani ma'lum bir vaqt oralig'ida qancha hududni qamrab olishi mumkinligini bashorat qiladi.


4.



(muallif Nig'matov A.M.)

Ushbu qurilma bunkerga o'rnatilib, kabinasida ogoxlantirish chirog'i o'rnatilgan bo'ladi, don satxi qolmaganda traktorhiga ogoxlantirish signalini beradi hamda chirog'i yonadi.




5.




(muallif Nig'matov A.M.)

Hashoratlardan metall panjara yordamida elektr toki orqali ximoya qilinadi. Yoritkich manbai xashorotlarni o'ziga jalb etib, metall panjaraga olib keladi. Panjara past kuchlanishda, yuqori tok kuchi yordamida xashorotlarni tok bilan zararlantiradi.

6.		<p>Lokal hududlaridagi mini ges elektroenergiyasini samaradorligini oshirish qurilmasi (muallif Nig‘matov A.M.)</p> <p>Charxpalak uzluksiz elektroenergiyani ta’minlashi uchun bevosita suv bilan harakatlanadi. Yaratilgan qurilma suv satxi o‘zgarishiga qarab charxpalakni ko‘tarib tushirishga imkon yaratadi. Yani elektroenergiya uzluksiz ta’minlanadi. Suv sathi o‘zgarsa, qurilma yordamida charxpalak suv satxi bo‘yicha o‘zgaradi.</p>
7.		<p>Parranda fabrikasida tuxumlarni avtomatik nazorat qilish qurilmasi (muallif Nig‘matov A.M.)</p> <p>Ushbu qurilma fabrikada tuxumlar sonini GSM modul yordamida avtomatik masofadan nazorat qiladi. Ish unumdorligini oshiradi. Avtomatik va masofaviy boshqaruv yordamida fabrikaning barcha kataklaridagi tuxumlar sonini nazorat qiladi.</p>
8.		<p>E</p> <p>Tenzo datchigidan foydalanib ekskavatorning avtomatik nazorati amalga oshiriladi. Bu qurilmani ekskavator manipulyatorida ulangan bilaklari, silindrga o‘rnatiladi va ekskavator zo‘riqqa vaqtida mashinistga signal beradi. Bu bilan mashinistning ishlari avtomatlashiriladi.</p> <p>(muallif Nig‘matov A.M.)</p>

9.		<p>Uzum va meva bog‘larini avtomatik himoya qilish qurilmasi (mualliflar Nig‘matov A.M., Sirojova X.G‘.)</p> <p>Ushbu qurilma uzumzorlar va mevazorlarimizni masofadan kuzatish va uning himoyasini to‘laligicha himoya qilish tizimini o‘z ichiga olib, qurilma uzumzor va mevazorlarga qushlar kelganida qattiq ovoz chiqaradi, shu tufayli qushlar qochib ketadi, qurilma baliqchilikda xam o‘z o‘rniga ega.</p>
10.		<p>(muallif Nig‘matov A.M.)</p> <p>Yaratilgan qurilma archani ildiz qismiga o‘rnatilib, qo‘shimcha hermetiklashtirilgan rezervuar qo‘yiladi va qo‘shimcha rezervuarda suv satxi datchigi o‘rnatiladi hamda bevosita masofadan ma’lumot uzatilib turiladi. Qaysi archada suv satxi qolmasa signal lampasi orqali ogoxlantiradi.</p>
11.		<p>Ionli suv qurilmasi (muallif Toshpo‘latov N.T.)</p> <p>Ionlashtirilgan suv qurilmasi sabzavot, poliz va boshqa ekinlarini shira-tripsga o‘xshagan zararli hashoratlar va har xil zamburug‘li kasalliklarning zararli ta’siridan tozalashda ishlatiladi, allergik kasalliklar va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.</p>


12.



Gidropnevmo loyqa so'rgich (muallif Meliquziev S.)

Sug'orish tizimlarini loyqa cho'kindilardan havo oqimidan foydalanib tozalash texnologiyasi ishlab chiqildi. Sun'iy ravishda kuchli havo oqimini hosil qilgan holda oqimchali qurilma ishchi kamerasida vaakum hosil qilib, malum bir chuqurlikdagi loyqa cho'kindilarni tozalash imkoniyatiga ega.

13.



Ekskavatorni xarakatlantirish qurilmasi (muallif Melikuziev S.)

Qoplamali sug'orish tizimlarini loyqa cho'kindilardan mexanik (ekskavatorlar) tozalashda qoplama sifatiga zarar yetkazishini oldini olish uchun ishlab chiqilgan.



14.




HETA haydovchisiz elektro traktor (muallif Turdiev A.)

HETA haydovchisiz elektro traktorimiz 18 ta ot kuchiga ega bo'lib bir martalik quvvat bilan 0.5 gektar yer maydoniga ishlov berish, 4 tonnagacha yukni 60 km masofaga tortib borish imkoniyatiga ega. Ushbu traktor fermerlar va dehqonlarni ortiqcha ishchi kuchidan ozod etadi va yoqilg'i sarf xarajatlarini kamaytirib dala maydonlariga ishlov berish imkoniyatini yaratib beradi.

15.	 <p>The image shows a project titled "SMART DRIP IRRIGATION SYSTEM". It features a poster with a diagram of a drip irrigation system, a small red and white pump unit, and two cardboard boxes. One box is labeled "INSTRUCTION" and lists "PUMP OFF", "PUMP ON", and "LEADING". The other box is labeled "PELICUT". Logos for "EU" and "CAREC" are visible on the poster.</p>	<p>SMART DRIP irrigation system (mualliflar Jalilov S., Turdiev A.)</p> <p>Dalaga turli xil joylarga namlik sensorlari oʻrnatiladi va daladagi namlik doimiy avtomatik tarzda oʻlchab turiladi, barcha namlik haqidagi maʼlumotlar esa markaziy qurilmaga yani nasos oʻrnatilgan qurilmaga yetib boradi, bunda agar namlik yetarli darajaga kelgan boʻlsa nasos avtomatik tarzda oʻchadi, agarda namlik yetarli boʻlmasa nasoslar avtomatik tarzda yonadi va eng qulay tomoni shundaki, barcha maʼlumotlar internet orqali fermer telefoniga yuboriladi.</p>
16.	 <p>The image shows a mechanical device labeled "Energy Exporter". It consists of a blue base with several white rollers or blades arranged in a row. A small blue and white structure is mounted on top.</p>	<p>Energy exporter (muallif -talaba Reimbaev M.)</p> <p>Suvning mexanik energiyasini elektr energiyasiga aylantiradi. Boshqa loyihalardan ustunligi suvning oqim tezligi past boʻlganda ham yuqori quvvatli elektr energiyasini olish imkonini beradi.</p>
17.	 <p>The image shows a robot-like device labeled "PROBOT". It has a blue and white body with a small blue and white structure on top. The base is blue and white striped.</p>	<p>PROBOT (muallif Xayrullaev A)</p> <p>Karona virusni oldini olish va insonlarning sogʻligʻini saqlashda innovatsion texnologiya mahsuloti boʻlib, onlayn nazoratni oʻrnatish xavfsizlikni taʼminlashda va maxsus ichimliklar quyib beruvchi hamda odamlarni oʻziga jalb qila oladigan suniy intellektga ega robot.</p>

18.		<p>Smart panels loyihasi (muallif -talaba Raximberdiev Ya)</p> <p>Harakatlanuvchi quyosh paneli kun davomida quyoshga perpendikulyar harakatlanadi va oddiy panellarga nisbatan ko'p energiya yig'adi.</p>
19.		<p>(muallif Davirov A.)</p> <p>Mikro gidroelektrostansiya oqimning xam kinetik xam potensial energiyasidan foydalanishi natijasida gidroturbinadagi mexanik quvvatni oshirish maqsadida ikta parallel vintli turbina zanjirli uzatma orqali bitta generatorga ulanish asosida mikrogidroelektrostansiyaning energiya samaradorligini oshiradi hamda, past bosimli suv oqimi mavjud bo'lgan barcha elektr iste'molchilarini elektr energiya bilan ta'minlaydi.</p>
20.		<p>I o T - n e t a</p> <p>IoT- ga (Internet of Things) asoslangan aqlli sug'orish monitoring tizimi sug'orishni boshqarish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni to'playdi va uni real vaqt rejimida Thingspeak deb nomlangan IoT platformasiga yuboradi hamda u yerda ma'lumotlarni yozib olib taxlil qiladi.</p>



21.



O‘simliklarni nurlatish qurilmasi (muallif Yusupov Sh.,B.)

Shirin qalampir urug‘iga ekishdan oldin ultrabinafsha nur bilan ishlov berish, unib chiqqan o‘simlikni nurlatishda yorug‘lik diodli nurlatgichlardan foydalanish, boshqa nurlatish qurilmalarga nisbatan urug‘larni unib chiqishi va shirin qalampir ko‘chatlarini yetishtirish jarayonini jadallashtirish imkonini beradi.

22.



UZUM qalamchalariga elektrofizik ishlov berish qurilmasi (muallif Markaev N.)

Tavsiya qilinayotgan uzum qalamchalarini ekishdan oldin elektr ishlov berish qurulmasini qo‘llash orqali ko‘chatlarning ildiz otishining tezlashishi, ildiz otgan ko‘chatlarning yashovchanligi, sifatligi va rivojlanishining yaxshilanishini ta‘minlaydi.

23.



Sharsharali suv oqimlariga mo'ljallangan mikrogidroelektrostansiya (muallif

Ushbu mikrogidroelektrostansiya o'rtacha 1,2 kVt's, oqim miqdori oshgan yog'ingarchilik mavsumlarida esa 1,5 kVt's elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lib, qurilma o'lchamlarini mavjud suv oqimi miqdoriga muvofiq tarzda o'zgartirish orqali mo'ljallangan quvvatga erishish mumkin.


24.



Quyosh-shamol mobil elektr stantsiyasi + mini elektr traktor (mualliflar Boqiev A.A., Isaev R., Sarinsaxodjaev A.R., Nuralieva N.A.)

Quyosh-shamol mobil elektr stantsiyasi yordamida mini elektr traktorni dala sharoitida zaryadlab, mini traktor yordamida olis xududlardagi energiya yetishmasligi oqibatida foydalanishdan chiqqan ekin maydonlarida mahsulot yetishtirish, buning natijasida yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkonini amalga oshirib beradi, mini elektr traktor 3,6 kVt quvvatga ega bo'lib, o'simliklarga suyuqlik bilan ishlov berish, issiqxonalarda transport vositasi va boshqa qator kichik qamrovli agrotexnik tadbirlarni o'tkazishda qo'llanilishi mumkin.

25.



“ROTOR-DISKLI DON MAYDALAGICH” RDD-100

Chorva va parrandalar uchun donli ekinlar: makkajo'xori, bug'doy, arpa, suli va shu kabi boshqa don maxsulotlarini turli o'lchamlarda maydalashga (yorma sifatida) mo'ljallangan. Takomillashgan mazkur qurilma o'zining bir qator qulayliklariga ega bo'lib, 220 V elektr tokida ishlaydi. Chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik tarmoqlarida hamda uy sharoitida ishlatishga mo'ljallangan bo'lib, har tomonlama qulay va energiya tejankordir. Soatiga 230-250 kg don maxsulotini turli o'lchamlarda maydalash imkoniga ega.

26.



**PAST BOSIMLI SUV OQIMLARI UCHUN ENERGIYA SAMARADOR
MIKRO GIDRO ELEKTROSTANSIYA**

Past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikroGESning konstruktiv va ish rejimi parametrlari modellashtirilib, uning konstruksiyasi takomillashtirilgan. Past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikroGESning funksional sxemasi matematik modellashtirish asosida ishlab chiqilgan. Katta bo'lmagan sug'orish tarmoqlari (kanal va ariqlar)ga o'rnatish orqali elektr ta'minoti og'ir bo'lgan xududlarda aholi xonadonlari, kichik korxonalar va tadbirkorlarni qo'shimcha elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi.

27.



**MEVA VA UZUMGA SHARBAT OLISHDAN OLDIN ELEKTR IMPULSLI
ISHLOV BERISH QURILMASI**

Meva va uzumga sharbat olishdan oldin elektr impulsli razryad bilan ishlov berish orqali meva xujayralari tarkibidagi sharbatni berishga bo'lgan qarshiligini kamaytirish hisobiga ulardan sharbat chiqishi 8-10 % ga ortadi. Meva sharbati ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi barcha turdagi korxonalar, firmalar va yakka turdagi tadbirkorlar uchun mo'ljallangan.

28.



YOMG'IRLATIB SUG'ORISH MASHINASI

Yomg'irlatib sug'orishda o'simlikdagi fotosintez jarayoni yaxshilanadi, organik moddalarning rivojlanishi va to'planishi kuchayadi. Yomg'irlatib sug'orishda o'simliklarni bargidan oziqlantirish imkoniyati yaratiladi. Sug'orishni sutkaning ixtiyoriy vaqtida, yuqori darajada mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan usulda o'tkazish mumkin, istalgan (hisoblangan, kerakli) sug'orish me'yorini, xatto eng kichigidan (30 m³/ga) boshlab berish mumkin. Yer ustidan sug'orishda katta hajmdagi tekislash ishlarini talab etadigan yoki suvning sizilishdagi (filtratsiya) sezilarli darajada yo'qotishlar bilan bog'liq. Sabzavot, kartoshka, g'alla va chorva ekinlarini yetishtiruvchi fermer va dehqon xo'jaliklari.


29.



ENERGIYA VA RESURSTEJAMKOR KARTOSHKA EKISH AGREGATI

Kartoshka ekish mashinasi urug'lik kartoshkalarni agrotexnik talab darajasida sifatli ekish, ish unumini 5-8% oshirish, metall sarfini 25-30%, yonilg'i va energiya sarfini 5-10% kamaytirish imkonini yaratadi. Mashina traktorga osish moslamasi bilan jihozlangan rama, tayanch-xarakat uzatuvchi g'ildiraklar, bunker, gidravlik boshqariladigan iztortgichlar, ekish seksiyasi kabi qismlardan iborat. Taklif etilayotgan kichik-kompakt va konstruktiv tuzilishi sodda bo'lgan kartoshka ekish mashinasi (kartoshka ekkich), o'zining gabarit o'lchamlar, massasining yengilligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, xorijiy analoglarga nisbatan arzon va tejamkor. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi fermer va dehqon xo'jaliklari.

30.



NEMATODA KASALLIKLARIGA QARSHI ELEKTR IMPULSLI ISHLOV BERISH QURILMASI

Nematoda bilan zararlangan ildiz poyasiga ishlov berilgandan so'ng hosildorlikni 1,5 baravargacha oshirish mumkin. Elektr impulslari bilan ishlov berilgan yer (issiqxona bo'limlarida) nematoda kasalligi qo'zg'atuvchilari va lichinkalarining nazorat varianti (ishlov berilmagan) yer uchastkalariga nisbatan 85–90 % ga kamayish imkonini beradi. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar. Sabzavot – poliz ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashgan fermer, dehqon va yakka tadbirkor xo'jaliklari, yopiq (issiqxona) va ochiq maydonlarda pomidor, bodring, shuningdek boshqa turdagi qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtiruvchi xo'jalik sub'ektlarida qo'llaniladi.

31.




NASOS STANSIYALARIDA QAYTARISH KLAPANNI FUNKSIONAL VAZIFASINI TA'MINLAB BERUVCHI AVTOMATIK QAYTA ULASH BOSHQARUV BLOGI

Nasos stansiyalarida sug'orish tizimida qaytarish klapani ko'p vaqt suvni ushlab turishi lozim. Lekin ekspluatatsiya davomida qaytarish klapani suvni ko'p vaqt ushlab turlmaydi. Tarmoqda qisqa vaqt ichida kuchlanish uzilib kolsa, nasos agregatini mashinist qayta ishga tushirishi kerak. Agar mashinist bexabar bo'lib qolsa, unda bu nasosni qayta ishga tushirish uchun ko'p vaqt sarflanadi, ya'ni suv bilan qaytadan to'ldirish vakkumini hosil qilish lozim. Bu muammolarni bartaraf etish uchun avtomatik qayta ulash sxemasi ishlab chiqildi. Suv xo'jaligi vazirligi. Nasos stansiyalari boshqarmasida. Hidrotexnik inshootlaridan foydalanish boshqarmasida qo'llaniladi.

32.		<p style="text-align: center;"><u>CHO‘KMA NASOSLARNI VAQT REJIMINI MASOFADAN BOSHQARISH QURILMASI</u></p> <p>Ushbu nasos agregatlari vaqt grafigi asosida ishlaydi, ya’ni vaqti-vaqti bilan, bunday holatda suv berish vaqtida operator vaqt grafigi bo‘yicha xar bir suv berish punktiga borib nasos agregatini ishga tushiradi va buning uchun ko‘p vaqt sarflaydi. Inson faktorini inobatga olgan holda ushbu jarayonda bir qator muammolar yuzaga keladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish hamda iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun boshqaruv tizimiga masofaviy vaqt rejimiga ega bo‘lgan qurilmadan foydalanish tizimi ishlab chiqildi. “Suvsoz” DUK ichimlik-suv ta’minoti inshootlarida qo‘llaniladi.</p>
33.		<p style="text-align: center;"><u>QUDUQLARDA SUV SATHINI O‘LCHASH QURILMASI</u></p> <p>Ushbu qurilma yer sathidan bir necha metr chuqurlikda joylashgan suv satxlarini balandligini aniqlaydi. Shuningdek, yer osti suvlarini chiqarib beradigan nasos agregatlari o‘rnatilgan quduqlarda qurilmadan foydalanilsa doimiy ravishda suv satxini aniqlab turish hamda nasos agregatlarini ishdan chiqish (buzilish, elektr dvigatellarni kuyishi) ni oldini oladi. Tuman suv xo‘jaligi bo‘limlari, fermer va dehqon xo‘jaliklarida qo‘llaniladi.</p>

34.



NAMLIK VA HARORATNI O'LCHASH QURILMASI



Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi barcha toifadagi xo'jaliklar, issiqxonada qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar uchun tuproq va havo harorati hamda namligini muntazam kuzatib borish imkonini ta'minlovchi mazkur qurilmani ishlatish uchun oddiy, ixcham va qulay bo'lib, tuproq tarkibidagi namlik va haroratni aniqlash jarayonida talab etiladigan uzoq vaqt va mehnatni yengillashtiradi. Bir vaqtning o'zidan 8 nuqtadagi namlik va harorat ko'rsatkichlarini kuzatib borish imkoniyatiga ega. Xorijiy analoglarga nisbatan arzon va tejamkor. Mazkur qurilmadan foydalanib ish yuritish, xo'jalik, korxonalar va boshqa sub'ektlarda namlik va haroratni aniqlash uchun sarflanadigan ishchi kuchi va vaqtni tejash imkonini beradi.


35.



TERMOGIGROMETR QURILMASI

Aholi xonadonlarida nisbiy namlik va harorat darajasini o'lchash uchun mo'ljallangan. Mazkur qurilma bolalar xonasida havo harorati va namligini doimiy ravishda nazorat qilish imkoniga ega. Shuningdek, mazkur qurilmadan oziq-ovqat maxsusotlari, boshqa turdagi maxsusotlarni saqlash omborxonalari, issiqxonalar va shunga o'xshash doimiy nazoratda bo'lishini talab etuvchi inshootlarda qo'llash uchun mos keladi. Aholixonadonlari, issiqxonalar, inkubatoriyalar, omborxonalar va boshqalar uchun mo'ljallangan.

36.		<p><u>TELEFON ORQALI NASOS STANSIYASINI BOSHQARISH VA SIZOT SUV SATHINI KUZATISH QURILMASI.</u></p> <p>Mazkur mini kompleks tizim operatorning mobil telefoni orqali masofaviy boshqaruvga va avtomatik rejimiga ega. Avtomatik rejimi va masofaviy boshqaruv kamandalari operatorning mobil telefoni orqali SMS ko‘rinishida beriladi. Quduqdagi suvning va nasos agregatining holati haqidagi ma’lumotlar tizim tomonidan operatorning mobil telefoniga SMS ko‘rinishida yuborib turiladi.</p>
37.		<p><u>NASOS AGREGATLARINI BIR TUGMA ORQALI BOSHQARISH QURILMASI.</u></p> <p>Ushbu qurilma foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish paytida juda qulaydir. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda, inson zakovati boshqa tugmachalarga avtomatlashtirishning boshqa vositalari haqida o‘ylamasdan tezda javob beradi.</p>
38.		<p><u>KLAPANLAR UCHUN AVTOMATIK NAZORAT QILISH BLOKI</u></p> <p>Xududning bir qismini sug‘orish kerak bo‘lgan vazifani avtomatik ravishda boshqaradi. Qurilmaga kuyosh panelidan foydalanish mumkin. Yelektro yenergiyani tejamkorligini oshirib, suv isrofgarchiligini oldini oladi. Quyosh panelidan zaryad olgan akkumulatorni ortiqcha zaryadidan avtomatik ximoyalangan.</p>






DAG‘AL OZUQALARNI MAYDALASH QURILMASI

Chorvachilik xo‘jaliklarida presslangan dag‘al ozuqalarni maydalash qurilmalarining yo‘qligi sababli ozuqalar qo‘l kuchi yordamida, ko‘p hollarda maydalanmasdan berilmoqda. Ozuqalarni maydalanmasdan berilishi hisobiga ularning 25-30 % gacha qismi chiqitga nushxurtga chiqib ketmoqda. Bu esa jamg‘arilgan ozuqadan foydalanish samaradorligining pasayishi va sarf xarajatlarning ortishiga olib kelyapti. Tavsiya etilayotganushbuqurilmaqulay, hamyonbopvaishunumiyoqori, ozuqalarnibelgilanganzootexniktalablardarajasidamaydalabberishnita‘minlaydi. Qishloq xo‘jaligi, chorvachilikka ixtisoslashgan oilaviy va fermer xo‘jaliklarida qo‘llaniladi.

40.		<p><u>PILLAGA DASTLABKI ISHLOV BERISH QURILMASI</u></p> <p>Pillaga dastlabki ishlov berishda kimyoviy moddalardan foydalanish inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari pilladan olinadigan ipakning sifat ko'rsatgichlarini yomonlashtiradi. Tavsiya etilayotgan tirik pillalarga o'ta yuqori chastotali elektr magnit maydon bilan dastlabki ishlov berish qurilmasi energiya tejammkor, pilla qobig'iga ta'sir etmasdan bevosita pilla ichidagi g'umbakga ta'sir etganligi uchun, pilladan olinadigan ipakning sifat ko'rsatgichlarini saqlanib qolinishini taminlaydi.</p>
41.		<p><u>IMPORT MAHSULOTLARNI MAHALLIY XOM-ASHYOLAR ASOSIDA CHINNI BUYUM TAYYORLASH PLITALARINI ISHLAB CHIQRISH.</u></p> <p>Ushbu ishlanmada mahalliy xom-ashyolarga asoslangan issiqlikka chidamli keramik plitalar tayyorlash tizimi, chinni zavodlarning ish faoliyati tizimida energiyadan foydalanish va uni akkumulyatsiyalash jarayoni va bu jarayonda Quyosh energiyasidan foydalanish qonuniyatlaridagi holatlar ifodalangan.</p>
42.		<p><u>IMPORT MAHSULOTLARNI MAXALLIY XOM-ASHYOLARDAN KUMUSHKON TOG'IDAGI SERPENTINI VA SHPINELLAR ASOSIDA KATTA QUYOSH PECHIDA QIMMATBAXO ZARGARLIK TOSHLARINI ISHLAB CHIQRISH.</u></p> <p>Ushbu ishlanmada zargarlik buyumlariga texnik xizmat ko'rsatish paytida juda qulaydir. Shuningdek, favqulotda vaziyatlarda, inson zakovati boshqa tugmachalarga avtomatlashtirishning boshqa vositalari haqida o'ylamasdan tezda javob</p>

		<p>beradi. Zargarlik sohasi, Keramik materiallardan foydalanuvchi ilmiy tashkilotlar va uning tasarrufidagi korxonalar va ilmiy laboratoriyalarda qo'llaniladi.</p>
43.		<p><u>YUQORI HARORATLI AVTOMATLASHTIRILGAN MUFEL PECHINI ISHLAB CHIQISH</u></p> <p>Yuqori haroratli elektr isitgichlar 1300-1700 sharoitida keramik materiallarni sintez qilishga mo'ljallangan. Asosiy isitish moslamasi karbid kremniy va xromel lantaldan tashkil topgan. 220 volt kuchlanishda 2.5 kvv vatga ega. Ushbu pech foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish jihatidan, tannarxining 50% arzonligi, hajmiy jihatdan ixcham va ishchi kamerasining kattaligi bilan import mahsulotlaridan farqlanadi.</p>
44.		<p><u>DEFUSE-IT "INTELLEKTUAL TIZIM ORQALI YUQORI SHO'RLANGAN SUVLARNI TOZALASH USKUNASI"</u></p> <p>PID rostdash qonuniyatiga asoslangan intellektual tizim yordamida yuqori sho'rlangan suv manbalarini tozalash konstruksiyasi yaratildi. Yaratilgan uskuna porsion suv aralastirish metodiga asoslangan bo'lib kichik suv tozalash imkoniyatiga ega bo'lgan RO(reverse osmosis) filterga nisbatan ko'proq suv tozalash imkonini beradi. Uskuna yuqori sho'rlanganlik darajasiga ega bo'lgan suv manbalaridan sug'orishda foydalanish imkoniyatini beradi. Uskuna avtomatik tarzda suv manbasini analizini amalga oshiradi va suv tozalash rejimini belgilaydi.</p>

45.		<p><u>QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINI SIFAT JIHATIDAN MALUMOTLAR BAZASIDA SHAKLLANTIRISHNING AVTOMATLASHGAN TIZIMINI MODULLASHTIRISH</u></p> <p>Ushbu mobil ArcGIS dasturi uchun yaratilgan bo‘lib, yerlarni sifat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan tuproq ayirmalarini avtomatlashgan tizim asosida vizuallashtirish va axborotlarni konvertatsiya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga vaqt unumdorligi va ish sifati ikki barobariga ortadi.</p>
46.		<p><u>IJROCHI MEXANIZMINI AVTOMATIK XIMOYA VA BOSHQARUV SHKAFI (40 kvт gacha)</u></p> <p>Ijrochi mexanizmini ishdan chiqishining salbiy oqibatlarni oldini olish, kutiladigan katta sarf-harajatlarni kamaytirish (dvigatellarni kuyishi, nasos agregatlarini ishdan chiqishi va h.k.) imkoniyatini to‘liq ta‘minlovchi nasos agregatini avtomatik himoya qilish boshqaruv shkafi yaratilgan.</p>
47.		<p><u>SUG‘ORISH EGATLARI TUBINI ZICHLASH QURILMASI</u></p> <p>Egat ko‘ndalang kesimining turg‘un profilini va loyihaviy nishabligini ta‘minlovchi yangi texnik vosita, ya‘ni egatning uzunligi bo‘yicha uning tubida gruntning notekis zichlanishini yaratuvchi qurilma hisobiga egatning butun uzunligi bo‘yicha tuproqni tekis namlash va sug‘orish uchun suv sarfini qisqartiradi.</p>